

YANGI KONSTITUTSIYANING UMUMJAHON DEKLARATSIYASI BILAN FARQI
VA UMUMIY JIHATLARI

Qodirov Islombek Ravshanbek o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

Annotasiya: Ushbu maqola orqali mamlakatimiz konstitutsiyamizning xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga inson huquq erkinliklariga sodiqligini tantanali e'lon qilganligini hamda Inson huquqlari umjahon deklaratsiyasi bilan o'xshash tomonlarini ko'rib chiqamiz shu bilan bir qatorda konstitutsiyamizda ham deklaratsiyada ham insonning sha'ni qadr qimmatini har narsadan ustun turishi haqidagi huquqiy asoslarni taqqoslaymiz.

Kalit so'zlar: Suverenitet, xalq hokimiyatchiligi, huquq va erkinliklar, tashqi siyosat, inkluziv.

Mamlakatimizdagi barqarorlik aholining tinch hamda osoyishta hayoti ta'minlanishida konstitutsiya dasturiy bo'lib xizmat qilayotganligi ijtimoiy iqtisodiy hamda xalqaro geosiyosiy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etayotganligini konstitutsiyaviy normalar ifodalab kelmoqda. Konstitutsiyamizning 54-moddasida Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ekanligi shu bilan bir qatorda davlat inson va fuqaroning qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlashi ta'kidlangan. 55-moddasida esa Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq xalqaro organlarga murojaat qilishga haqli degan norma ham insonlarning manfaatini asosiy qomus birinchi o'ringa qo'yganligidan dalolat beradi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ko'rsatmasi orqali qabul qilingan Inson huquqlari umjahon deklaratsiyasi ham insonning qadr-qimmatini va ularning teng ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik adolat yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga oladi. Dastlabki moddasidan hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdonan ato qilingan bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishi kerak. 8-moddasida aynan konstitutsiya bilan tengma teng jihatlari inobatga olingan har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan himoya qilinadi.

Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Inson huquqlari umjahon deklaratsiyasi ham aynan shuni ko'zlaydi. Qolaversa Miranda qoidasi ya'ni "Miranda Warning" bilan konstitutsiyamizning o'xshash tomoni ham umumiy o'xshashlikni tashkil qiladi. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Inson huquqlari deklaratsiyasi ham aynan mana shu maqsadni ko'zlaydi. Bolalar huquqlari yoki bolalar huquqlari inson huquqlarining bir qismi bo'lib, voyaga etmaganlarga alohida himoya va g'amxo'rlik qilish huquqlariga alohida e'tibor beradi. 1989 yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada (ChRK) bola „o'n sakkiz yoshga to'lmagan har qanday inson, agar bolaga nisbatan qo'llanadigan qonunchilikka ko'ra, balog'atga erta erishilmagan bo'lsa“ deb ta'rif beradi.^[1] Bolalar huquqlari ularning ikkala ota-ona bilan birlashish huquqini, inson o'ziga xosligini, shuningdek, jismoniy himoya, oziq-ovqat, umumiy davlat to'lanadigan ta'lim, sog'liqni saqlash va bolaning yoshi va rivojlanishiga mos keladigan jinoiy qonunlarga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini, bolaning teng huquqli himoyasini o'z ichiga oladi. bolaning fuqarolik huquqlari va bolaning irqi, jinsi, jinsiy orientatsiyasi, jinsi, milliy kelib chiqishi, dini, nogironligi, rangi, etnik kelib chiqishi yoki boshqa xususiyatlariga ko'ra kamsitilmaslik. Bolalar huquqlarining talqini bolalarga avtonom harakat qilish qobiliyatiga ruxsat berishdan tortib, bolalarning jismoniy, ruhiy va hissiy jihatdan zo'ravonlikdan xoli bo'lishiga qadar, garchi „suiiste'mollik“ degani munozarali masaladir. Boshqa ta'riflar g'amxo'rlik va tarbiyalash huquqlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro huquqda " o'smirlar ", „o'smirlar“ yoki " yoshlar " kabi yoshlarni tavsiflash uchun qo'llanadigan boshqa atamalarining ta'riflari yo'q, lekin bolalar huquqlari harakati yoshlar huquqlari harakatidan farq qiladi. Bolalar huquqlari sohasi huquq, siyosat, din va axloq sohalarini qamrab oladi. Qonunga ko'ra, voyaga yetmaganlar sifatida bolalar dunyoning biron bir ma'lum yurisdiksiyasida mustaqillik yoki mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega emaslar. Buning o'rniga ularning voyaga etgan tarbiyachilari, jumladan, ota-onalar, ijtimoiy xodimlar, o'qituvchilar, yoshlar ishchilari va boshqalar, vaziyatga qarab, bu vakolatga ega. Ba'zilarining fikriga ko'ra, bu holat bolalarga o'z hayotlarini etarli darajada nazorat qila

olmaydi va ularni himoyasiz holga keltiradi. Lui Altusser bolalarga taalluqli bo'lgan ushbu huquqiy mexanizmni „repressiv davlat apparati“ deb ta'riflashgacha borgan.

Hukumat siyosati kabi tuzilmalar ba'zi sharhlovchilar tomonidan kattalar bolalarni suiiste'mol qilish va ekspluatatsiya qilish usullarini maskalash uchun qabul qilingan, bu esa bolalarning qashshoqligi, ta'lim imkoniyatlarining etishmasligi va bolalar mehnatiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, bolalar jamiyat o'zini tutish uslubini qayta ko'rib chiqishi kerak bo'lgan ozchilik guruhi sifatida qaralishi kerak. Tadqiqotchilar bolalarni jamiyat ishtirokchilari sifatida tan olishlari kerak, ularning huquq va majburiyatlari barcha yoshdagilarda tan olinishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimizdagi huquq va erkinliklarni ta'minlashda inson huquqlari umjahon deklaratsiyasi ham o'z samarasini berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakat rejalarini („yo'l xaritalari“ni) ishlab chiqish; normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlash; inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlarga maslahat berish funksiyasini amalga oshirish va ularga amaliy ko'maklashish; inson huquqlari sohasida aholi huquqiy savodxonligini oshirishga ko'maklashish, inson huquqlariga rioya qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, noshirlik faoliyatini amalga oshirish; inson huquqlari sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda tuzilmalar, xorijiy mamlakatlar milliy institutlari bilan hamkorlikni amalga oshirish; inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish, o'quv, ilmiy-uslubiy va ommabop nashrlar hamda xalqaro shartnomalarning davlat tilidagi to'planlari doimiy chop etilishini ta'minlash; inson huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xronologiyasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo'yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish. Markaz o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: a) inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, ushbu sohadagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish sohasida: inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; xalqaro tashkilotlar, shuningdek, xorijiy davlatlarning inson huquqlari to'g'risidagi hisobotlarida taqdim etilgan ma'lumotlarga sharhlar tayyorlaydi; inson huquq va erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilish, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlarning takliflarini to'plash va umumlashtirishni amalga oshiradi; inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya qilish masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining axborotlarini tinglaydi; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tuzilmalardan kelib tushadigan individual murojaatlar bo'yicha tegishli choralar ko'radi; inson huquqlari, shuningdek, inson huquqlari

bo'yicha xalqaro shartnomalarni qo'llash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining yakdil nuqtai nazarini shakllantirishga ko'maklashadi;

b) inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalari bajarilishini monitoring qilish sohasida: inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalarini davlat organlari tomonidan bajarilishi masalalari bo'yicha ma'lumot to'plashni amalga oshiradi;

inson huquqlari sohasidagi qonunchilikka, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qoidalariga davlat organlarining rioya qilish holatini tizimli tahlil qiladi va umumlashtiradi;

inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tuzilmalar tavsiyalarini, shuningdek, tegishli davlat organlari va tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning, shu jumladan ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali milliy harakat rejalarini amalga oshirish bo'yicha yaxlit uslubiyotni ishlab chiqadi va monitoringini amalga oshiradi;

inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini bajarish bo'yicha davlat organlari faoliyati samaradorligini baholaydi;

inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tuzilmalardan kelib tushadigan individual murojaatlarni davlat organlari tomonidan ko'rib chiqishning tizimli monitoringini amalga oshiradi;

jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, ularning murojaatlarini ko'rib chiqadi, shuningdek, ularning hal qilinishi monitoringi va tahlilini o'tkazishni amalga oshiradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - 80. b.
3. Konstitutsiya - xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m91066>.
<https://saylov.uz/oz/news/2020/11/30/konstitutsiya-khalqimiz-tafakkuri-va-izhodining-mahsuli-2>
5. Inson huquqlari umjahon deklaratsiyasi
6. Yangi va eski tahrirdagi konstitutsiya
7. Xabeas korpus inliz jinoyat protsessual instituti
8. Miranda Warning
9. BMTning 78-sessiyasida prezidentimiz nutqi